


## IJTIMOY SOLIQ SUMMASINI TO'LASH TARTIBI



### IJTIMOY SOLIQ SUMMASINI TO'LASH TARTIBI

2021-yil 24-iyul kuni Vazirlar Mahkamasi tomonidan 460-son “Ish beruvchilarga ular tomonidan 25 yoshdan oshmagan xodimlar uchun to'langan ijtimoiy soliq summasini Davlat byudjetidan to'liq qoplab berish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida” gi qarori qabul qilingan bo'lib, mazkur qarorda nazarda tutilgan 25 yoshdan oshmagan xodimlar uchun to'langan ijtimoiy soliq summasini (davlar ulushi 50 foiz va undan ortig' bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasno) qaytarish uchun So'x tuman davlat soliq inspeksiyasida “Soliqchi-tadbirkorga ko'makchi” tamoyili asosida ishlar tashkil qilingan bo'lib, yuridik shaxslarga 25 yoshdan oshmagan xodimlar uchun to'langan ijtimoiy soliq summasini qaytarish bo'yicha maslahatlar berilib, qonunchilikda belgilangan tartibda to'langan mablag'lar yuridik shaxslarning bank hisob raqamlariga qaytarib kelinmoqda.

Eslatma! Ish beruvchilarga nisbatan ular tomonidan to'langan ijtimoiy soliq summasini qoplab berish shaklidagi qo'llab-quvvatlash chorasi qo'llanilishi uchun ularning yosh xodimlari quyidagi talablarga mos kelishi shart:

ijtimoiy soliq summasi qoplab berilishi so'ralayotgan hisobot oyida yosh xodim 25 yoshdan oshmagan bo'lishi;

uzluksiz 6 oy davomida mehnat faoliyatini amalga oshirgan hamda ish beruvchi tomonidan belgilangan tartibda ijtimoiy soliq uzluksiz to'langanligini tasdiqlovchi hujjat (elektron qayd) mavjudligi;

Ish beruvchining arizasini ushbu badda nazarda tutilgan talablardan boshqa asoslarga ko'ra rad etish taqiqlanadi.

**A.A.Atayev - So'x tuman davlat soliq inspeksiyasi**

**“Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash” sho'basi**

**davlat soliq bosh inspektori**

---

2021-11-22 15:47:21